



QAMASHI TUMANI ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI FAOLIYATI TARIXI

Tojiyev Bahodir Movlon o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Qamashi tumani ichki ishlar boshqarmasining tashkil topishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va zamonaviy faoliyati batafsil tahlil qilinadi. Asarda boshqarmaning sovet davridan boshlab, mustaqillik yillarigacha bo'lgan asosiy o'zgarishlari, tashkilot tuzilmasi, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyati yoritiladi. Shuningdek, huquq-tartibotni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat xavfsizligini mustahkamlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi boshqarma faoliyatining o'rni ilmiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida tahlil etiladi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, yangi ma'muriy binolar qurilishi, xizmat sharoitlarini yaxshilash va mahalliy profilaktika ishlari natijasida erishilgan yutuqlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Qamashi tumani, ichki ishlar boshqarmasi, huquq-tartibot, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat xavfsizligi, tarix, islohotlar, kadrlar, boshqaruv, mustaqillik, profilaktika.

Аннотация. В данной научной статье представлен подробный анализ становления, исторических этапов развития и современной деятельности Камашинского РОВД. В работе рассматриваются основные изменения в работе отдела с советских времен до годов независимости, его организационная структура, материально-техническая база и кадровый потенциал. На основе научных источников и архивных документов анализируется роль отдела в обеспечении правопорядка, борьбе с преступностью, укреплении общественной безопасности, защите прав и свобод граждан. Особое внимание уделяется реформам, проведенным в годы независимости, строительству новых административных зданий,



улучшению условий службы, а также успехам, достигнутым в результате профилактической работы на местах.

Ключевые слова: Камашинский район, РОВД, правопорядок, борьба с преступностью, общественная безопасность, история, реформы, кадры, управление, независимость, профилактика.

Abstract. This scientific article provides a detailed analysis of the formation, historical development stages and modern activities of the Kamashi district internal affairs department. The work covers the main changes of the department from the Soviet era to the years of independence, its organizational structure, material and technical base and personnel potential. It also analyzes the role of the department in ensuring law and order, combating crime, strengthening public safety, and protecting the rights and freedoms of citizens based on scientific sources and archival documents. Special attention is paid to the reforms implemented during the years of independence, the construction of new administrative buildings, improving service conditions, and the achievements achieved as a result of local preventive work.

Keywords: Kamashi district, internal affairs department, law and order, combating crime, public safety, history, reforms, personnel, management, independence, prevention.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, qadimda vatanimiz hududida shakllangan davlatlarda harbiy kuchlar bilan birga, osoyishtalik va jamoat tartibini saqlashga, aholi xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishga ixtisoslashgan alohida tuzilmalar ham faoliyat yuritgan. Xususan, "soqchi", "qorovul", "chokar", "shixna", "yasovul", "ko'kaldosh", "muhtasib", "posbonboshi", "sarboz", "mirshabboshi" va "mirshab"lar kabi lavozim va tuzilmalar hukmdor qarorgohi, qal'alar, muhim inshootlar, shahar va qishloqlarni himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilarni aniqlash, topish va jazolash, hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalarni bajargan. Ushbu



tuzilmalar faoliyati, o'z navbatida, zamonaviy ichki ishlar organlari shakllanishining tarixiy ildizlarini tashkil etadi va bugungi ichki ishlar organlari o'zbek davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatadi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida, mamlakatimizda mavjud bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitga muvofiq tarzda, huquq-tartibot organlarining nomi, tashkiliy tuzilmasi, vazifalari va ish yuritish uslublari doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib borgan. Masalan, XIX asr oxirida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanganidan so'ng, mahalliy jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun politsiya-mirshablik tizimi joriy qilindi. Biroq, ushbu tizim asosan imperiya manfaatlariga xizmat qilgan, aholining tinchligi va xavfsizligi bilan bir qatorda, mahalliy aholi harakatini nazorat qilish, xalq ozodlik harakatlari va noroziliklarning oldini olish hamda ularni bostirishda harbiy bo'linmalarga yordam ko'rsatish faoliyati bilan ham shug'ullangan.

XX asr boshidan, ayniqsa Sovet Ittifoqi davrida, huquq-tartibot tizimi tubdan o'zgardi. Dastlab "ishchi-dehqon militsiyasi" deb atalgan ichki ishlar organlari Sovet tuzumini mustahkamlash, ideologik nazoratni kuchaytirish va jamoat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Markazdan yuborilgan buyruq va ko'rsatmalar, topshiriqlar o'z vaqtida va so'zsiz bajarilgan. Natijada, ichki ishlar organlari faoliyati mahalliy aholining huquq va erkinliklaridan ko'ra, ko'proq davlat siyosati va tuzum manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, bu holat fuqarolik jamiyatining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

1917 yil 28-oktabrda yangi tuzilgan Sovet hukumati Markaziy hukumat tomonidan "Ishchilar militsiyasi to'g'risida"gi qaror qabul qilinishi, o'z navbatida, zamonaviy huquq-tartibot tizimi shakllanishining muhim bosqichi bo'ldi. Mazkur qarorga muvofiq, ishchilar va askarlar deputatlari barcha kengashlari hududiy militsiya bo'linmalarini tashkil etish vakolatiga ega bo'ldi. Bu tashabbus asosan mahalliy kengashlarning tashkiliy faoliyati doirasida amalga oshirilgan bo'lib, yangi tashkil etilgan militsiya tuzilmalari to'liq ravishda ishchilar va askarlar deputatlari kengashlariga bo'ysundi.



1918 yil 30-aprelda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi Ishchi, Dehqon va Qizil Armiya deputatlari Kengashlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 5-qurultoyida Turkiston Respublikasining Ichki va Tashqi ishlar komissarligi tuzildi. Mazkur komissarlikning fuqarolik-ma'muriy qismi esa 1918 yil may oyida Ichki ishlar xalq komissarligiga aylantirildi va mustaqil idora sifatida faoliyat yurita boshladi. Ushbu islohotlar Turkiston hududida huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini ta'minlashda yagona markazlashgan tizim yaratilishiga zamin yaratdi.

1920 yil aprel oyida esa Turkiston Avtonom Sotsialistik Respublikasi Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan "Ishchi va dehqon militsiyasi to'g'risida"gi yangi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizomga binoan, militsiya tizimi Ichki ishlar xalq komissari huzuridagi Bosh boshqarma, okrug huzuridagi viloyat boshqarmalari, shuningdek, shahar va tuman inqilobiy qo'mitalaridan iborat ko'p bosqichli tuzilmani o'z ichiga oldi. 1920 yil oxiriga kelib, Turkiston ASSR hududida 34 ta shahar, 26 ta tuman va 92 ta okrug ichki ishlar bo'limi faoliyat yuritayotgan edi.

Mazkur davr o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan ham ajralib turadi. Jumladan, 1920-yillarda O'rta Osiyoda Sovet hokimiyati o'rnatilishi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugatilishi natijasida mintaqada ommaviy ko'chishlar va aholi migratsiyasi yuzaga keldi. Minglab mahalliy aholi siyosiy ta'qiblar va tartibsizliklardan qochib, Afg'oniston hududiga o'tishga majbur bo'ldi. Afg'oniston qiroli Omonullaxon tomonidan shimoliy viloyatlarda qochqinlar uchun qishloqlar va yerlar ajratilishi esa mintaqadagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Qamashi tumani ma'muriy-hududiy birlik sifatida ilk bor 1937 yil 29 sentabrda Yakkabog' tumanidan ajralib chiqib, "Ko'kbuloq" mahalla fuqarolar yig'ini hududida tashkil etilgan. Keyinchalik, 1961 yil 24 dekabrda Qarshi tumaniga qo'shilgan bo'lsa-da, 1963 yil 31 dekabrda yana mustaqil tuman sifatida



qayta tashkil topdi va shu davrdan boshlab Qamashi tumani Ichki ishlar bo'limi faoliyat yurita boshladi.

1963–1964 yillarda tumanning Ichki ishlar bo'limiga militsiya mayori Hikmat Halilov rahbarlik qilgan. O'sha davrda bo'lim eski to'rt xonali binoda joylashgan bo'lib, xizmat xonalari va texnik vositalar yetishmasligiga qaramay, xodimlar fidokorona xizmat qilib, tuman hududida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borganlar. Bu jarayonda bo'lim faoliyati, avvalo, ijtimoiy tartib va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan edi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qamashi tumanida ichki ishlar sohasida qator tub o'zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi. Xususan, 1991–1993 yillarda Ichki ishlar bo'limiga rahbarlik qilgan ichki xizmat polkovnigi Xayrulla Sayfullayev tashabbusi bilan yangi ma'muriy binoni qurish uchun tuman hokimligidan yer maydoni ajratilib, qurilish ishlari boshlangan va 1994 yilga kelib tuman Ichki ishlar bo'limi zamonaviy binoda faoliyat yurita boshlagan. Oradan 24 yil o'tib, binoning jismoniy eskirishi sababli, Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi rahbariyatining ko'magida 2018 yilda bo'lim binosi kapital ta'mirdan chiqarildi. Natijada barcha sohaviy xizmatlar zamonaviy aloqa va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan alohida xonalarda ish boshladi, xodimlar zamonaviy avtomashinalar bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari asosida ichki ishlar sohasini tubdan isloh qilish maqsadida, bo'lim uchun qo'shimcha xonalar, texnika va aloqa vositalari bilan ta'minlash, joriy va kapital ta'mirlarni amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2001 yildagi qaroriga muvofiq, tumandagi mavjud 22 ta militsiya tayanch punkti qayta tashkil etildi. Endilikda, profilaktika inspektori, mahalla raisi, maslahatchi va posbon bir binoda faoliyat yuritmoqda, bu esa joylarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali natijalar bermoqda.



Bugungi kunda Qamashi tumani Ichki ishlar bo'limi jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynab kelmoqda. Tumandagi erishilayotgan yutuqlarda uzoq yillar ichki ishlar idoralarida samarali faoliyat yuritgan faxriylar hamda hozirgi rahbar va xodimlarning ham munosib hissasi borligi alohida ta'kidga loyiqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2019.
2. Babakalanov Z.Y. Demokratlashtirish va sud-huquq tizimini isloh etish sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy ta'minlashni takomillashtirish // O'zbekiston Respublikayei IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2011 yil 1-son. 31 – 32betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 27 martdagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni // “Xalq so'zi” 2001 yil 28 mart.
4. Sattorov A. Ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning samarasi // O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari: Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. 48-bet.